



## MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA KORPORATIV IJTIMOIY MAS'ULIYAT AMALIYOTI TAHLILI

Joldasbayeva Gulimxan Xamit qizi

E-mail: [gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com](mailto:gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com)

*Annotatsiya:* ushbu tadqiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat holati, shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot ishida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlarda tadbirkorlarning korporativ ijtimoiy mas'uliyat faoliyatini o'r ganilgan.

*Kalit so'zlar:* korporativ ijtimoiy mas'uliyat, Markaziy Osiyo, mahalliy aholi huquqlari, ekologiya, xayriya, atrof-muhit muhofazasi.

## АНАЛИЗ ПРАКТИКИ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Жолдасбаева Гулимхан Хамит кизи

E-mail: [gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com](mailto:gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com)

*Аннотация:* В данном исследовании анализируются состояние, становление и тенденции развития корпоративной социальной ответственности в странах Центральной Азии. В исследовании рассматривается деятельность предпринимателей в области корпоративной социальной ответственности в таких странах, как Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан и Таджикистан.



**Ключевые слова:** корпоративная социальная ответственность, Центральная Азия, права местного населения, экология, благотворительность, охрана окружающей среды.

## ANALYSIS OF CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY PRACTICES IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Joldasbayeva Gulimxan Xamit qizi

E-mail: [gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com](mailto:gulimxanjoldasbaeva27@gmail.com)

**Abstract:** this study analyzes the status, formation and development trends of corporate social responsibility in Central Asian countries. The research study examines the corporate social responsibility activities of entrepreneurs in countries such as Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, and Tajikistan.

**Keywords:** corporate social responsibility, Central Asia, local population rights, ecology, charity, environmental protection.

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat - bu korxonalarining axloqiy, ijtimoiy talablarga javob berishi va qaror qabul qilishda manfaatdor taraflarning yani, mahalliy aholi, istemolchilar, xodimlar va mahalliy hamjamiyat manfaatlarini hisobga olish hisoblanadi. Olim A.Kerollning ta'kidlashicha korporativ ijtimoiy mas'uliyatni 4 toifaga ajratishimiz mumkin. Ular iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va xayriya mas'uliyatlari. Tadqiqotlarga ko'ra Markaziy Osiyo mamlakatlarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat nisbatan yangi tushuncha bo'lib, u hali rivojlanish bosqichida. "A.Keroll piramidasi"ga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy mas'uliyatning eng maqbul va keng tarqalgan turi xayriya mas'uliyati,

keyin esa iqtisodiy javobgarlikdir.<sup>1</sup>

Qozog‘iston. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida Qozog‘iston Respublikasida korporativ ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanish ko‘rsatkichi nisbatan yaxshiroq. Mustaqil Qozog‘istonda ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun dastlabki shart-sharoitlar 1990-yillarning o‘rtalarida bozorga xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi bilan paydo bo‘lgan va o‘sha paytdayoq o‘z ijtimoiy mas’uliyatini namoyon etgan. Biroq, shunga qaramay, bu yo‘nalish yuqori darajada rivojlanmadni. Bugungi kunda aholi va mahalliy kompaniyalarning ijtimoiy mas’uliyatning asosiy tamoyillari haqida xabardorligi jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Biroq, Qozog‘istonda korporativ ijtimoiy mas’uliyat tushunchasi haqida yagona tushuncha hali shakllanmagan.

2013-yilda mustaqil tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra<sup>2</sup>, Qozog‘istonda biznes vakillarining atigi 63 foizi korporativ ijtimoiy mas’uliyat haqida biladi, bundan yirik kompaniyalar, kichik biznes vakillari bor-yo‘g‘i 47 foiz xabardor. Davlat xizmatchilari va fuqarolik jamiyatni vakillari o‘rtasida korporativ ijtimoiy mas’uliyatni tushunishda sezilarli bo‘shliqlar qayd etilgan. Ikkalasi ham korporativ ijtimoiy mas’uliyatni faqat xayriya sifatida ko‘rishadi.

<sup>1</sup> Смирнова Е.В. Социальная ответственность бизнеса в странах Центральной Азии: сравнительный анализ. 2015. Вестник КазНУ. Университет им. Сулеймана Демиреля, Республика Казахстан, г. Каскелен. [https://www.researchgate.net/publication/280093375\\_Socialnaa\\_otvetstvennost\\_biznesa\\_v\\_stranah\\_Centralnoj\\_Azii\\_sravnitelnyj\\_analiz](https://www.researchgate.net/publication/280093375_Socialnaa_otvetstvennost_biznesa_v_stranah_Centralnoj_Azii_sravnitelnyj_analiz).

<sup>2</sup> Смирнова Е.В. Социальная ответственность бизнеса в странах Центральной Азии: сравнительный анализ. 2015. Вестник КазНУ. Университет им. Сулеймана Демиреля, Республика Казахстан, г. Каскелен. [https://www.researchgate.net/publication/280093375\\_Socialnaa\\_otvetstvennost\\_biznesa\\_v\\_stranah\\_Centralnoj\\_Azii\\_sravnitelnyj\\_analiz](https://www.researchgate.net/publication/280093375_Socialnaa_otvetstvennost_biznesa_v_stranah_Centralnoj_Azii_sravnitelnyj_analiz).



Kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyat faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir: moliyaviy resurslarning etishmasligi; davlat tomonidan imtiyozlarning etishmasligi; tegishli bilim va ko'nikmalarining etishmasligi; normativ-huquqiy bazaning nomukammalligi; jamiyatda huquqiy axborot, huquqiy savodxonlikning etishmasligi; kompaniyalarning jamiyatga qo'shgan hissasini jamoatchilik tomonidan e'tirof etilmaslik va korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha monitoring tizimining yaxshi shakllanmaganligi.

Qирғизистон. Qирғизистонда мamlакатда korporativ ijtimoiy mas'uliyat kontseptsiyasi hali ham rivojlanish jarayonida. "CSR Business Network" agentligi og'a Xon jamg'armasi<sup>3</sup> bilan hamkorlikda o'tkazgan tadqiqotda Qирғизистонning tog'-kon sanoati, moliya, neft sohalari, aloqa, savdo va ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, transport, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi 20 ta eng yirik kompaniyasi ishtirok etgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, ushbu tashkilotlarning aksariyati xayriya va homiylik va mahalliy hamjamiyat oldidagi mas'uliyat bilan shug'ullanadi.

Lekin Qирғизистонда ham doimiy ravishda korporativ ijtimoiy mas'uliyat bilan faol ishtirok etayotgan va shug'ullanayotgan kompaniyalar soni kam. Faqt kam sonli kompaniyalar xodimlarning kasbiy darajasini oshirish, mehnatni muhofaza qilish, hududlarning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy infratuzilmasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

<sup>3</sup> Смирнова Е.В. Социальная ответственность бизнеса в странах Центральной Азии: сравнительный анализ. 2015. Вестник КазНУ. Университет им. Сулеймана Демиреля, Республика Казахстан, г. Каскелен. [https://www.researchgate.net/publication/280093375\\_Socialnaa\\_otvetstvennost\\_biznesa\\_v\\_stranah\\_Centralnoj\\_Azii\\_sravnitelnyj\\_analiz](https://www.researchgate.net/publication/280093375_Socialnaa_otvetstvennost_biznesa_v_stranah_Centralnoj_Azii_sravnitelnyj_analiz).



Issue - 8(2025)

Available at [www.uznauka.uz](http://www.uznauka.uz)

Tojikiston. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida bo‘lgani kabi Tojikistonda ham ijtimoiy mas’uliyat tushunchasi hali to‘liq shakllanmagan va kompaniyalarda korporativ ijtimoiy mas’uliyatning asosiy tamoyillari rivojlanish jarayonida. Aksariyat Tojikiston kompaniyalari xayriya ishlari bilan shug‘ullanayotgani ham aniqlangan va korporativ ijtimoiy mas’uliyatni xayriya deb talqin qilishadi. Ko‘pincha, bir martalik insonparvarlik yoki xayriya yordami ko‘rsatiladi; korporativ ijtimoiy mas’uliyat esa doimiy asosda alohida kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda sharoitida korporativ ijtimoiy mas’uliyat dolzARB mavzuga aylanib bormoqda. Uni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1. Globallashuv ta’sirida O‘zbekistondagi kompaniyalar ham atrof-muhit, ekologiya, ijtimoiy sohalarga e’tibor berishi natijyasida bu yo‘nalishda barqaror o‘sish kuzatilmoqda.

Xususan, urbanizatsiya jarayonida poytaxt Toshkentda “Yangi O‘zbekiston”, “Toshkent city” dasturlari doirasida ko‘plab xorijiy investitsiyalar ishtirokida turar joylar, yangi imoratlar qurilishi, ijtimoiy infrastruktura, avtomobil yo‘llari qurilishi jadallahmoqda. Bu jarayonda korporativ ijtimoiy mas’uliyat amaliyoti: loyihalar tufayli minglab ish o‘rnlari yaratilmoqda, yangi maktablar, kasalxonalar, va sport inshoatlari qurilmoqda, aholining yashash darajasi sifati yaxshilanmoqda.

Lekin ko‘plab qurilish ishlarining amalga oshirilishi, ijtimoiy infrastrukturaning o‘zgarishi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda, bazi holatlarda esa er va mulk o‘rniga kompensatsiya to‘lanishi bilan bog‘liq tushunmovchiliklar, noroziliklarga ham sabab bo‘lmoqda.



2. Xorijiy kompaniyalarning O'zbekiston bozoriga kirib kelishi tufayli ular korporativ ijtimoiy mas'uliyat amaliyotlarini ham olib kirmoqda. Bu esa mahalliy kompaniyalar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistondagi korporativ ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini o'z faoliyatida keng qo'llaydigan va bu haqida hisobotlar berib boruvchi xorijiy kompaniyalardan biri bu ACWA Power kompaniyasi hisoblanadi. Kompaniyaning korporativ ijtimoiy mas'uliyat doirasi mahalliy aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ekologiyani asrash va ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga xayriya qilish kabi yo'nalishlardan iborat.

ACWA Power ijtimoiy sohada mahalliy aholining bandligini taminlash maqsadida "internship programs" dasturini yo'lga qo'ygan. Dastur doirasida mahalliy aholi ish bilan taminlanadi va xorijiy mutaxassislar yordamida yashil energiyadan foydalanish, energiya samaradorligi va texnik ko'nikmalar bo'yicha tajriyba orttirish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, kompaniya kam taminlangan hududlardagi maktablarni ta'mirlash, muhtoj oilalarga yordam berish va ijtimoiy soha obyektlariga quyosh panellarini o'rnatish kabi ijtimoiy mas'uliyat tashabbuslarini amal oshirdi. Bir martalik homiylik yoki uzoq yillik xayriya ishlarida qatnashish, moliyaviy barqarorlikni taminlash va mahalliy hamjamiyatga integratsiyalashuv kompaniya faoliyatining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.<sup>4</sup>

3. Ko'plab yirik kompaniyalar xaridorlar ishonchini qozonishida xayriya va ijtimoiy yordam asosiy omillardan biri sifatida keng tarqalmoqda. Masalan, "Ezgu amal" fondi O'zbekistonda onkologik kasallikkarga chalingan bolalarga yordam berish uchun tashkil etilgan.

<sup>4</sup> Corporate social responsibility. ACWA Power. <https://acwapower.com/en/>.



Mahalliy kompaniyalardan Korzinka, Alif, Artel Electronics kompaniyalari fond uchun mablag‘ ajratishadi. Artel Electronics kompaniyasi “Ezgu amal” fondi xayriya yordamini bergani uchun, shuningdek, talim sifati va aholining huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan loyihalarni amalga oshirgani uchun O‘zbekistondagi Amerika savdo palatasi tomonidan korporativ ijtimoiy mas’uliyat bo‘yicha “CSR Award” mukofoti bilan taqdirlandi.

Lekin kompaniyalar faoliyatida faqat bir martalik xayriya, homiylik tadbirlarini amalga oshirmsandan, korporativ ijtimoiy mas’uliyatni korxona biznes strategiyasining bir qismiga aylanishi, bu bo‘yicha yillik yoki choraklik hisobotlar berib borilishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.E.Суханов., Справительное корпоративное право. 2014.

2. Корпоратив ҳуқуқ. Рахмонкулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. 2007.

<https://library-tsul.uz/korporativ-u-u-ra-monkulov-r-gulyamov-s-s-2007/>

3. ESG Trends 2025. <https://esgpro.co.uk/esg-trends-2025/>.

4. Heddrich Katharina. COPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY IN GERMANY AND OTHER COUNTRIES. January 2014. ResearchGate: [https://www.researchgate.net/publication/275994293\\_Corporate\\_Social\\_Responsibility\\_In\\_Germany\\_And\\_Other\\_Countries](https://www.researchgate.net/publication/275994293_Corporate_Social_Responsibility_In_Germany_And_Other_Countries).

5. Corporate social responsibility: Evolution of a definitional construct. September 1999. Business & Society.

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI

XX-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 8(2025)

Available at [www.uznauka.uz](http://www.uznauka.uz)



6. Mauricio Andrés Latapí Agudelo. A literature review of the history and evolution of corporate social responsibility. Journal of Sustainable Business.  
<https://jcsr.springeropen.com/articles/10.1186/s40991-018-0039-y>.